E CONF SERIES
International Conference on Economics, Finance, Banking and Management
Hosted online from Paris, France
Website: econfseries.com 24th April, 2025

# SUZISH SPORTINING O’ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI

Hakimov Dilshod Quqonovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o’qituvchisi

**Annotatsiya**
Ushbu maqolada suzish sportining O‘zbekistonda rivojlanish bosqichlari, tarixiy asoslari, zamonaviy holati va erishilgan yutuqlari tahlil qilingan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, suzish sportiga qaratilgan e’tibor oshdi, federatsiyalar va sport infratuzilmalari yaratildi. Shuningdek, xalqaro musobaqalarda qatnashish orqali sportchilarimizning tajribasi oshdi. Shu bilan birga, infratuzilma va murabbiylar tanqisligi kabi muammolar mavjud. Maqolada bu muammolarni bartaraf etish yo‘llari va istiqbolli takliflar ham keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** suzish, sport rivoji, O‘zbekiston sporti, suzish federatsiyasi, infratuzilma, Olimpiya o‘yinlari, yosh sportchilar, suv sporti.

**Аннотация**
В данной статье рассматриваются этапы развития плавания в Узбекистане, его исторические корни, современное состояние и достигнутые успехи. После обретения независимости внимание к плаванию значительно возросло, были созданы федерации и спортивная инфраструктура. Также участие спортсменов в международных соревнованиях повысило их профессиональный уровень. Наряду с этим, в статье поднимаются вопросы нехватки инфраструктуры и квалифицированных тренеров, предлагаются пути решения и перспективные направления развития.

**Ключевые слова:** плавание, развитие спорта, спорт Узбекистана, федерация плавания, инфраструктура, Олимпийские игры, молодые спортсмены, водные виды спорта.

**Annotation**
This article explores the development stages of swimming in Uzbekistan, its historical background, current state, and achievements. After gaining independence, Uzbekistan has increased its attention to swimming by establishing federations and building sports infrastructure. Participation in international competitions has helped athletes gain valuable experience. The article also highlights existing issues such as infrastructure gaps and lack of qualified coaches, and offers solutions and future prospects for development.

**Keywords:** swimming, sports development, Uzbekistan sports, swimming federation, infrastructure, Olympic Games, young athletes, water sports.

**Kirish**
Jismoniy tarbiya va sport sog'lom jamiyatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng suzish sportiga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshdi. 1990-yillardan boshlab yangi suzish havzalari, sport maktablari, federatsiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Hozirda suzish bo'yicha sportchilarning xalqaro maydonlardagi muvaffaqiyatlari O'zbekiston sport tizimining rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, qamrov darajasi va infratuzilmaviy muammolar mavjudligicha qolmoqda.

**Metodologiya**
Suvda suzish, sportcha suzish — sport turi, rasmiy belgilangan masofaga muayyan usulda sportcha suzish (erkin tarzda, brass, batterflay usulida, orqa bilan), shuningdek, suv ostida, amaliy, sinxron (badiiy) suzishni o'z ichiga oladi. Xalqaro olimpiada qo'mitasi tasnifiga kura, Suvda suzishga suvga sakrash va suv poloso' ham kiradi, Suvda suzish zamonaviy 5 kurashning tarkibiy qismi hisoblanadi.
Suvda suzish tarixi 15—16-asrlarga to'g'ri keladi. Suzuvchilarning dastlabki sport musobaqalari 1515-yil Venetsiyada o'tkazilgan. Ilk suzish maktablari 18-asrning 2-yarmi — 19-asrning boshlarida Germaniya, Avstriya, Fransiyada ochilgan. 19-asr oxirida sun'iy suv havzalari kurila boshlagach, sportcha suzish ommalashib ketdi. 1890-yil Suvda suzish bo'yicha 1Yevropa chempiona™ o'tkazildi. Suvda suzish

1896-yildan Olimpiada o‘yinlari dasturiga kiritildi (ayollar 1912-yildan qatnashadi). Xalqaro havaskorlar suzish federatsiyasi (FINA, 1908-yil asos solingan)ga 130 dan ortiq mamlakat milliy federatsiyalari a’zo.

O‘zbekiston suzish federasiyasi - ixtiyoriy asosda sportchilar, murabbiylar, havaskorlar, suv sporti faxriylari hamda suzish, sinxron suzish, suvga sakrash, suv polosi va ochiq suv sporti turlari bo‘yicha faoliyat yurituvchi barcha jismoniy shaxslarni birlashtirgan nodavlat notijorat tashkilotdir. O‘zbekiston suzish federasiyasi Osiyo suzish federasiyasi (AASF) va Xalqaro suzish federasiyalari (FINA) a’zosi hisoblanadi.

1939-yilda O‘zbekistonda O‘zbekiston SSR suzish federasiyasi tashkil etildi[3]. 1960-yillarda Toshkentda (Jismoniy tarbiya instituti qoshida, Harbiy sport klubi boshchiligidagi “Mehnat” sport jamiyati) Navoiy viloyati va boshqa viloyatlarda ochiq va yopiq basseynlar qurilib, foydalanishga topshirildi. Tez orada Babanina, Ustinova, Iskandarova, Konov, Zabolotnov kabi mamlakatimiz sportchilari turli musobaqalarda muvaffaqiyat qozonishdi, shuningdek, Olimpiya o‘yinlarida ham ishtirok etishdi.

Ayni paytda mamlakatda 200 dan ortiq suv havzalari mavjud. 1992-yilda yangi suzish federasiyasiga asos solindi, ammo bir muncha vaqt o‘tgach, u yana qayta tashkil etildi va suv sportining 4 ta turi tashkilotning yurisdiksiyasiga o‘tdi. Bularga: suzish, suv polosi, sinxron suzish va dayving kirdi[2].

Xalqaro suzish federasiyasi (FINA) misolida suv sporti turlari bo‘yicha malakali va ilg‘or sportchilarni tayyorlash uchun xalqaro amaliyot asosida federasiya tashkil etilgan.

## Natijalar

1992-yilda O’zbekiston suzish federatsiyasi tashkil etildi, uning prezidenti etib Shokarim Abdullayevich Annazarov saylandi. 1994-yilda O’zbekiston suzish federatsiyasi Xalqaro suzish federatsiyasi (FINA), shuningdek, Osiyo suzish assotsiatsiyasining (AASF) teng huquqli a’zosiga aylandi. Shu yilning iyulida V.Kabanov, O.Svetovskiy, A.Agafonov, A.Galyautdinov, S.Vecherkindan iborat suzish terma jamoasi O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan murabbiy V.V.Petrov rahbarligida tarixda birinchi marta jahon chempionatida qatnashdilar. Oktabr oyida

Yaponiya davlatining Xirosima shahrida bo'lib o'tgan XII Osiyo o'yinlarida ishtirok etib, erkin usulda 4x100 m estafetada bronza suzish bo'yicha mustaqil O'zbekiston tarixida ilk medallarni qo'lga kiritishdi. 1996-yida terma jamoamiz Tailand davlatining Bangkok shahrida o'tgan VI Osiyo chempionatida qatnashib 1 ta oltin, 1 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritishdi. Shu yili AQSHning Atlanta shahrida XXVI yozgi olimpiada o'yinlarida suzish bo'yicha sakkiz nafar terma jamoamiz a'zolari qatnashdilar. 2000-yil Sidneyda bo'lib o'tgan XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida esa o'n nafar suzuvchilarimiz ishtikol etishdi. Garchan sportchilarimiz ikkala olimpiya o'yinlarida medal olmagan bo'lishsada, bu sportchilarimizga keyingi xalqaro musobaqalar uchun ulkan mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi[1].

**1. Infratuzilma holati**

— 2015-yilda 95 ta suzish havzasi bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 160 taga yetgan.

— Ammo viloyatlarda mavjud havzalar soni va sifat darajasi hali ham yetarli emas.

**2. Sportchilar soni**

— 2023-yilda suzish bilan muntazam shug'ullanuvchi sportchilar soni 30 ming nafarga yetdi.

— 12–18 yoshdagi o'smirlar orasida suzishga qiziqish 37% ni tashkil qilgan.

**3. Yutuqlar**

— Tokio-2020 Olimpiadasida O'zbekiston suzish sporti bo'yicha ishtirok etdi, ammo medalga ega chiqmadi.

— Osiyo chempionatlarida 2019–2023 yillar oralig'ida 6 ta bronza, 2 ta kumush medal qo'lga kiritilgan.

**Muhokama**

Suzish sporti sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida yuksalib bormoqda. Yaqin yillarda qabul qilingan davlat dasturlari, jumladan, "Sog'lom avlod uchun", "Harakatlar strategiyasi", suzish sportiga bo'lgan yondashuvni kuchaytirdi. Shunga qaramay, ayrim hududlarda infratuzilma yetishmasligi, malakali murabbiylar tanqisligi, motivatsiya yetarli bo'lmaganligi kabi muammolar mavjud. Yangi

texnologiyalardan foydalanish, xalqaro tajribani joriy etish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.

**Xulosa**

O‘zbekistonda suzish sporti mustaqillikdan so‘ng jadal rivojlandi. Yangi federatsiyalar tashkil etildi, sport inshootlari qurildi va yosh avlod orasida bu sport turiga bo‘lgan qiziqish ortdi. Xalqaro miqyosdagi ishtirok va yutuqlar O‘zbekiston sport tizimining salohiyatini namoyon qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda infratuzilma yetishmasligi, malakali mutaxassislarning kamligi va sportchilarning motivatsiyasi kabi muammolar mavjud. Kelgusida suzish sportining yanada ommalashuvi va rivojlanishi uchun davlat dasturlarini samarali amalga oshirish, xalqaro tajribalardan foydalanish, yoshlar o‘rtasida suzishga bo‘lgan qiziqishni oshirish va zamonaviy infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zohid Sobir o’g’li Sultonov. Mamlakatimizda suzish sport turining rivojlanish bosqichlari. Academic research in educational sciences. 2021.
2. M.Abdullayev, F.Tashpulatov Suzish va uni o„qitish metodikasi o„quv qo„llanma Toshkent “Sano standart” 2018.
3. Korbut V.M., Islamov I.S. Suzish nazariyasi va uslubiyati o„quv qo„llanma Toshkent 2018.
4. Mamashoev, U. U. (2023). EXPRESSION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE IN PHRASEOLOGY WITH THE HEART COMPONENT. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 76-80).
5. Umid Ulug’bek o’g, M. (2025, March). TIL O’RGANISHDA ADABIYOTNING O’RNI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 64-71).
6. Umid Ulug‘bek o‘g, M. (2025, March). XORIJIY VA MILLIY BADIIY ASARLARNING TIL O ‘RGATISHDAGI DIDAKTIK AHAMIYATI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 56-63).

7. Umid Ulug‘bek o‘g, M. (2025, April). ADABIY MATNLAR ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 61-69).
8. Umid Ulug‘bek o‘g, M. (2025, April). INDIVIDUAL TIL O ‘RGATISH METODIKALARINI SHAKLLANTIRISH. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 70-77).
9. Umid Ulug‘bek o‘g, M. (2025, April). TIL O ‘RGANISHDA AUDIO-KITOBLAR VA MULTIMEDIA RESURSLARNING O ‘RNI. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 36-43).
10. Umid Ulug’bek o’g, M. (2025, April). XORIJIY VA MILLIY ASARLAR ASOSIDA GAMIFIKATSIYA VA ROLDA O’YNASH METODLARINI JORIY ETISH. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 44-52).
11. Normurodovna, A. M. (2025, February). TASHKILOTLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 310-317).
12. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISI BO'LISHDA BOSHLANG'ICH INGLIZ TILI DARSLARINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 350-357).
13. Axmedovna, B. S. (2025, February). O'ZBEKISTONDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 326-333).
14. Boymurotovna, X. N. (2025, March). RUS TILINI O ‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNING ROLI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 55-62).
15. Boymurotovna, X. N., Asror o’g’li, A. O., & Rajabboyevna, O. K. (2025, March). KOMPYUTER VA ROBOTLAR BILAN O’ZARO ALOQA ORQALI IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING O’ZGARISHI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 63-70).
16. Xidirova, N. B., Oromova, S. S. Q., & Otajonova, K. R. (2024). TALABALARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI. Indexing, 1(1).

17. Xidirova, N., Oromova, S., & Otajonova, K. (2024). Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo 'llash istiqbollari. Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati, 1(1), 18-21.
18. Джуманов, Ж. Х., & Эгамбердиев, Х. С. (2018). Разработка и внедрение устройств автоматизированных измерений параметров подземной гидросферы. Математик моделлаштириш, алгоритмлаш ва дастурлашнинг долзарб муаммолари. Республика конференцияси. Тошкент, 17-18.
19. Egamberdiev, K., Khidirova, N., & Islomov, A. (2024). Creation of an automated information system using python and the django framework with a telegram bot. Big Data and Computing Visions, 4(3), 219-226.
20. Хайриддинов, Ш. Б. (2024). ФИЛОСОФСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. Экономика и социум, (2-2 (117)), 669-672.
21. Botirovich, X. S. (2024). AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO 'LLASH. GOLDEN BRAIN, 2(19), 66-70.
22. Botirovich, X. S. Murodullo o 'g, JOT, & Akbar o 'g 'li, SR (2024). INTERNET VA "KUMUSH ASR" YANGI IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR. Modern education and development, 11(3), 127-132.
23. Маматова, Г. Д. (2021). К вопросу о роли цифровых технологий в совершенствовании высшего образования Республики Узбекистан. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 239-243).
24. Mamatova, G. (2023). OLIY TA'LIM MUASSALARINING RAQAMLI FAOLIYATI hamda KELAJAK KADRLARINI TAYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR va SUN'IY INTELEKTNI QO 'LLASH JARAYONLARI. KELAJAK KASBLARI. Interpretation and researches, 1(7).
25. Маматова, Г. Д. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ. ББК 65.0501 А 43, 71.

26. Mamatova, G. (2023). Цифровой университет: стратегия создания умной инфраструктуры в высших учебных заведениях Узбекистана. Economics and Innovative Technologies, 11(4), 296-312.
27. Зикриллаева, Ф., Дустмуродова, М., Нормаматова, Н., Сайдуллоева, М., & Абдирахимова, М. (2025). Globalizatsiyalashgan zamonaviy tilshunoslik paradigmalari. Инновации в современной лингвистике и преподавании языков, 1(1), 298-300.
28. Normurodovna, A. M. (2025, February). INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING INGLIZ TILI KURSIDAGI AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 302-309).
29. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. In International Educators Conference (pp. 358-365).
30. Axmedovna, B. S. (2025, February). INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'ZARO MULOQOTNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 318-325).
31. Abduqodirov, A. A., Yusupbekov, A. N., Suvonov, B. I., & Toshtemirov, R. T. (2022). Tabiiy gazni qayta ishlash jarayonining intellektuallashtirilgan boshqaruvida noaniq mantiq asosidagi modeldan foydalangan holda nazorat qilish. Инновационные подходы, проблемы, предложения и решения в науке и образовании, 1(1), 100-108.
32. Sa'dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). THE ESSENCE OF NEW PEDAGOGICAL TERMS DURING THE REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION.". Science Shine" International scientific journal, 14(1).
33. Boymurotovna, X. N. Asror o'g'li, AO, & Rajabboyevna, OK (2025, March). KOMPYUTER VA ROBOTLAR BILAN O'ZARO ALOQA ORQALI IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING O'ZGARISHI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 63-70).